

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 758 sahifa.
2025-yil, 30-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayeich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayeich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayeich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEXANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
Norov Murodjon Maxmudovich	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	
SUG'URTA KORXONALARIDA REZERVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	544
Najimova Nigora	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY BOZORINING O'RNII	549
Mardanov Aziz Yusupovich	
THE IMPORTANCE OF GREEN ENERGY IN THE ECONOMY OF FERGANA REGION: CURRENT TRENDS AND PROBLEMS	555
Khayrullaev Zoidjon	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING UNDIRILISHI BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	559
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	563
Muyassarzoda Fayziyeva	
MOLIYAVIY MEXANIZM SIFATIDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BELGILASHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	570
Abdullayev Erkinjon A'zamovich	
MAMLAKAT YAIM QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL USULLARI ASOSIDA PROGNOZLASH	578
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
XALQARO TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	585
Eshtaev Alisher Abdug'aniyevich, Ivatov Irisbeg	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	590
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	595
Abdujabbarov Abdulaziz Abdurashid o'g'li	
РОЛЬ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	600
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
BARQAROR MOLIYAVIY RENTABELLIK BANKLARNING DAROMADLILIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA.....	606
Umarov Davron Shavkatovich	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR.....	612
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЕМ (LMS) В ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИИ И ЕЕ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЕ	618
Атабоева Шахризода Равшановна, Бекчанов Бекчан Юлдашевич	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА: ПЕРСПЕКТИВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	623
Киличева Ф.Б.	
DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA DEBITORLAR VA KREDITORLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	628
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
NARX BELGILASH-IQTISODIY MANFAATDORLIKNING ASOSIY OMILI VA NARXNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	635
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	



SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI ISHLAB CHIQUVISH JARAYONLARINI TAHLIL QILISH.....	639
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TARIF STAVKALARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI FISKAL BARQARORLIKNI KUCHAYTIRISH (OZIQ-OVQAT IMPORTI MISOLIDA).....	644
Rizayev Mirmahmud Xotamjanovich	
IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINING XORIJ TAJRIBASI	652
Akrom Mardiyev	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGI TAHLILI	659
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
CHARACTERISTICS OF APPLYING NEW HETEROCOMPOSITE POLYMER MATERIALS IN ENGINEERING ACTIVITIES	665
Umida Ziyamukhamedova, Mirjalol Abdulakimov	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ «МАХАЛЛАБАЙ»: ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИЯ И ТЕОРИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	672
Қосимжонов Нозимжон Қозимжон ўғли	
EKOLOGIK AUDITNI TASHKIL ETISHDA RISKLARNI JORIY ETISH TARTIBI	676
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
CORPORATE CULTURE AND ITS ROLE IN TALENT MANAGEMENT	683
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUVISH IMKONIYATLARI.....	687
Xazratkulov Niyoz Namzabayevich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ХОЗЯЙСТВЕННОГО МЕХАНИЗМА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ	692
Воронин Сергей Александрович, Азимова Феруза Маликовна	
ENERGETIKA LOYIHALARINI RAQAMLASHTIRISHDA TO'SIQLAR VA IMKONIYATLAR	700
Tilakov Ismoiljon Usmonovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	706
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BOZORLARNI MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI VA TAKOMLLASHTIRISH TAKLIFLARI.....	710
Mingboev Asqar Qandaharovich	
JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	717
Abdujabbarov Alisher Abdullayevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	722
Mufitillayeva Safiya Qodir qizi	
KORXONALAR FAOLIYATINI BAHOLASHDA STATISTIK AXBOROT TIZIMINING O'RN'I	728
Musurmonova Mahbuba Omonovna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING AGRAR SOHAGA TA'SIRI.....	732
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
DIRECTIONS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF COSTS.....	736
Pardaeva Shakhnoza Abdinabiyevna	
БОРЬБА С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	740
Арзиев Шерзод	



REKREATSION TURIZM OBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGI: YALTA VA KISLOVODSK SANATORIYALARI MISOLIDA	746
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
KORXONA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA STRATEGIK REJALASHTIRISH MEZONLARI VA OMILLARINING O'RNI	752
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	



KORXONA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA STRATEGIK REJALASHTIRISH MEZONLARI VA OMILLARINING O'RNI

Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Email: ubaydullayev1948@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda strategik rejalashtirish mezonlarining ahamiyati, tashqi omillarni chuqur tahlil qilish va ichki resurslardan oqilona foydalanish zarurligi yoritilgan. Tashqi muhit omillari strategik rejalashtirish jarayonida korxonaning barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, strategik rejalashtirishning miqdoriy va sifat mezonlari, bozorga yo'naltirilganlik mezonlari izohlangan. Tadqiqot natijalari asosida korxonalar uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: strategik rejalashtirish, tashqi muhit, ichki muhit, miqdoriy mezonlar, sifat mezonlari, bozorga yo'naltirilganlik, raqobat ustunligi, daromadlilik, korxona barqarorligi, tahliliy yondashuv, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This article analyzes the significance of strategic planning criteria in improving enterprise performance, emphasizing the importance of an in-depth assessment of external factors and the rational use of internal resources. External environmental factors are viewed as key elements in ensuring the sustainable development and competitiveness of enterprises during the strategic planning process. Furthermore, the quantitative and qualitative criteria of strategic planning, as well as market orientation indicators, are discussed. Based on the findings, scientific and practical recommendations for enterprises have been developed.

Keywords: strategic planning, external environment, internal environment, quantitative criteria, qualitative criteria, market orientation, competitive advantage, profitability, enterprise stability, analytical approach, management efficiency.

Аннотация. В статье рассматривается значение критериев стратегического планирования в повышении эффективности деятельности предприятия, а также необходимость глубокого анализа внешних факторов и рационального использования внутренних ресурсов. Внешняя среда рассматривается как ключевой фактор обеспечения устойчивого развития и конкурентоспособности предприятия в процессе стратегического планирования. Кроме того, раскрыты количественные и качественные критерии стратегического планирования, а также критерии рыночной ориентации. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации для предприятий.

Ключевые слова: стратегическое планирование, внешняя среда, внутренняя среда, количественные критерии, качественные критерии, рыночная ориентация, конкурентное преимущество, рентабельность, устойчивость предприятия, аналитический подход, эффективность управления.

KIRISH

Tashqi muhit omillarining strategik rejalashtirish samaradorligiga ta'siri bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlar faoliyati doimo o'zgaruvchan tashqi muhit bilan bog'liq. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillar korxonaning maqsad va strategiyalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu bois strategik rejalashtirish jarayonida tashqi muhit tahlilini to'g'ri va tizimli amalga oshirish muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.



Globallashuv, raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tashkilotlarning faoliyat yo'nalishlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Agar rahbariyat tashqi muhitdagi o'zgarishlarni o'z vaqtida baholay olmasa, strategik qarorlar samaradorligi pasayishi, bozordagi mavqe yo'qolishi mumkin. Shuning uchun har bir korxona tashqi muhit omillarini muntazam kuzatib borishi, tahlil qilishi va ularga mos strategik choralar ishlab chiqishi zarur.

Natijada, tashqi muhitning chuqur tahlili va unga moslashuv strategik rejalashtirish samaradorligini oshirishga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu mavzu iqtisodiy boshqaruv va strategik tahlil sohalari uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi muhit omillari strategik rejalashtirish jarayonida korxonaning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy elementlardan hisoblanadi. Cengizning ta'kidlashicha: "Tashqi muhitni tahlil qilish tashkilotlarga faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarni aniqlash va ularni boshqarish imkonini beradi" [3]. Bu fikr strategik rejalashtirishda tashqi muhit tahlilining zarurligini ko'rsatadi.

Porterning besh kuch modelida ham tashqi muhitning ta'siri alohida o'rin tutadi. Dantas va Silva [4] fikricha, "Yangi raqobatchilar tahdidi, yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning ta'sir kuchi, o'rnini bosuvchi mahsulotlar tahdidi hamda raqobat darajasi sohaning foydaliligini belgilaydi". Bu model strategik rejalashtirishda bozor muhitini kompleks baholash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Bu omillar soha ichidagi raqobat muhitining intensivligini belgilab, korxonalar o'rtasidagi narx siyosati, rentabellik va bozor ulushiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, ushbu kuchlarning o'zaro dinamik muvozanati tarmoqning umumiy iqtisodiy jozibadorligini, strategik barqarorligini hamda investitsion salohiyatini shakllantiruvchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Sadiku o'z tadqiqotida tashqi muhitning asosiy tarkiblarini PESTEL model orqali izohlaydi. Uning fikricha, "siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillar tashkilot strategiyasi samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi" [6].

Purwanti va hammualliflar empirik tadqiqot natijalariga tayanib, iqtisodiy o'zgarishlar, texnologiya rivoji va me'yoriy muhit kabi omillar korxonalar strategiyasini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb xulosa chiqargan [5].

Shirokova va Bogatyreva esa tashqi muhitning noaniqligi yuqori bo'lgan sharoitlarda strategik moslashuv va innovatsiyaviy yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydilar: "Qattiq raqobat va tez o'zgaruvchan muhitda strategik moslashuv kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi uchun asos bo'ladi" [7].

Bakar va Zainol tadqiqotiga ko'ra, tashqi muhit tahlili nafaqat xavflarni oldindan aniqlash, balki yangi imkoniyatlarni topishda ham muhim ahamiyatga ega. Ularning so'zlari bilan aytganda, "Tashqi muhitni kuzatish (bozor, raqobatchilar, texnologiyalar, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni doimiy tahlil qilish) tashkilotlarga strategik ustunlikka aylantirish mumkin bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi" [2].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, strategik rejalashtirish samaradorligi tashqi muhit omillarini chuqur o'rganish bilan bir qatorda, ichki resurs va imkoniyatlarni to'g'ri baholashga ham bog'liqdir. Korxonaning ichki imkoniyatlari – inson kapitali, boshqaruv tizimi, texnologik salohiyat va moliyaviy barqarorlik – strategik maqsadlarni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi. J.Pearce va R.Robinson ta'kidlaganidek, tashkilotning kuchli va zaif tomonlari aynan shu ichki omillar majmuasi orqali shakllanadi hamda ular strategik raqobat ustunligini belgilovchi muhim manba hisoblanadi [8].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi muhitdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar korxonaning strategik qarorlarini shakllantirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ichki imkoniyatlar va tashqi muhit talablarini muvozanatli uyg'unlashtirish korxonaga barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Natijalar tahliliga ko'ra, samarali strategik rejalashtirish jarayoni nafaqat tashqi tahdidlarni kamaytirish, balki mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish imkonini ham yaratadi.

Umuman olganda, tahlillar shu narsa ma'lumki korxonalar faoliyatida strategik yondashuvni rivojlantirish, ichki resurslarni tizimli boshqarish va tashqi omillarga tezkor moslashuvchanlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini samarali amalga oshirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Demak, tashqi muhit omillarini tizimli o'rganish strategik rejalashtirish samaradorligining asosiy sharti hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda strategik rejalashtirish jarayoniga tashqi muhit omillarining ta'sirini aniqlashda nazariy va tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Ma'lumotlar ilmiy manbalar, o'quv adabiyotlari hamda amaliy kuzatuvlar



asosida o'rganildi. Tashkilot faoliyatiga ta'sir etuvchi makro, mikro va ichki muhit omillari tahlil qilinib, ularning strategik qarorlar samaradorligiga ta'siri aniqlab berildi. Shuningdek, strategik rejalashtirish samaradorligini tavsiflashdagi bir qator mezonlar tanlab olinib, ularning mazmuni tavsiflandi. Tadqiqotda qo'llanilgan nazariy tahlil va umimlashtirish usullari ushbu mezonlar asosida strategik qarorlarning amaliy samaradorligini baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta'minlashda strategik boshqaruv yondashuvlarining ahamiyati ortib bormoqda. Har bir tashkilot raqobat sharoitida uzoq muddatli barqarorlikni saqlab qolish uchun tashqi omillarni chuqur tahlil qilishi va ichki imkoniyatlarini oqilona yo'naltirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, strategik rejalashtirish jarayonida samaradorlikka ta'sir etuvchi mezonlar hamda omillarni mohiyatan o'rganish muhim metodologik masala hisoblanadi.

Strategik rejalashtirish samarali bo'lishi uchun, ma'lum mezonlarga asoslanadi. Bu mezonlar iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi va takomillashib borishiga muvofiq shakllanib, o'zgarib borishi lozim [1]. Strategik rejalashtirish ishlab chiqilayotgan muhitning barcha jarayolarini qamrab olishi kerak. Strategik rejalashtirishning miqdoriy va sifatiy mezonlari mavjud bo'lib, uni quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

1-jadval. Strategik rejalashtirishning miqdor va sifat mezonlari

Miqdor mezonlari	Sifat mezonlari
Bozor ulushi, sotuv hajmini oshirish, ish tanlash natijasida yo'qotilgan ish kunlari, xarajalar va ishlab chiqarish samaradorligi darajasi, xodimlar qo'nimsizligi, xodimlarni qoniqlashlari, sof foyda, kimmatbaho qog'ozlar, to'lovlar.	Yuqori malakali menejerlar jalb qilish qobiliyati, mijolarga xizmat ko'rsatishning darajasining oshishi, xavf-xatar sonining kamayishi, imkoniyatlardan foydalanish.

Strategik rejalashtirish mezonlarini aniqlashda bir qator muammolar mavjuddir. Avvalo, ko'plab korxonalarda mezonlarni belgilashda aniq o'lchov ko'rsatkichlari va tahliliy yondashuvlarning yetishmasligi natijasida baholash subyektiv tus oladi. Shuningdek, tashqi muhit o'zgaruvchanligi va noaniqlik omillari strategik samaradorlikni barqaror baholashni qiyinlashtiradi.

Strategik rejalashtirishga vaqt omili muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, korxonalarda strategik rejalashtirishda bir nechta mezonlar ham qo'llaniladi. Strategik rejalashtirishni mezonlarga mosligi uning samarali bo'lishini belgilab beradi. Chunki strategik qarorlarning sifat darajasi tashqi va ichki muhit omillarining baholanishida qo'llaniladigan mezonlarning maqbulligiga bog'liqdir. Makro darajadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni baholash mezonlari tashkilotning uzoq muddatli strategiyasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

2-jadval. Strategik rejalashtirishning bozorga yo'naltirilganlik mezonlari

Strategik rejalashtirish nomi	Mezon mazmuni
Moslik darajasi mezon	Strategiya korxonaning imkoniyatlari va intilishlari, ichki va tashqi omillar nuqtai nazaridan kompaniyadagi vaziyatga mos kelishiligi.
Raqobat kurashida ustunlik mezon	Strategiya raqobatda barqaror ustunlikka erishishga olib kelishiligi. Strategiya yordamida raqobat kurashida qanchalik katta ustunlikka erishilsa, strategiya shunchalik kuchli va samarali bo'ladi.
Ishning jadalligini oshirish mezon	Strategiyaning kompaniya ishining intensivligini oshirishi.
Daromadlilikning oshishi	Strategiyaning korxona foydasiga va daromadini oshirib borishga xizmat qilishi, rentabelligini oshirishga olib borishi
Kompaniyaning uzoq kelajakdagi faolligi hamda raqobatbardoshligining oshishi.	Strategiyaning korxonani kelajakda iqtisodiy tomondan yanada faolligini oshirishi, yangi raqobatlashish yo'lini shakllantirib borish imkoniyatini berishi
Jozibadorlik mezon.	Diversifikatsiyalash uchun tanlangan tarmoq qo'yilgan mablag'lardan yaxshi foyda olish nuqtai- nazaridan jozibaliligi.
“Kirish uchun xarajalar” mezon	Foyda olish salohiyatiga putur yetkazmaslik uchun tarmoqqa kirish xarajatlari u darajada yuqori bulmasligi
Qo'shimcha manfaatlar mezon	Faoliyatda yangi raqobat ustunligini barpo etish uchun kompaniya ma'lum harakatlarni amalga oshirishiligi



Mikro muhit uchun esa raqobatchilar faolligi, iste'molchilar talabi va hamkorlik aloqalarining samaradorligi kabi mezonlar asosiy ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ichki muhit omillarini aniqlashda resurslardan foydalanish darajasi, boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va inson kapitalining salohiyatini baholash mezonlari qo'llanilishi zarur. Ana shu mezonlar majmuasi orqali tashkilot tashqi va ichki muhit talablariga muvofiq holda strategik maqsadlarni shakllantiradi. Natijada strategik rejalashtirish jarayoni tizimli, o'lchovli va amaliy natijaga yo'naltirilgan shaklda amalga oshadi.

Tadqiqot jarayonida tashkilotning tashqi va ichki muhit omillari strategik rejalashtirish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi nazariy tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, har qanday tashkilot tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada faoliyat yuritadi. Tashqi muhit tashkilotni zarur resurslar, axborot va imkoniyatlar bilan ta'minlaydigan asosiy manba bo'lsa, ichki muhit uning hayotiy faoliyatini ta'minlaydigan asosiy salohiyatdir. Agar ichki muhit zaiflashsa, bu tashkilotning inqiroz yoqasiga kelib qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tashqi va ichki omillar o'rtasidagi muvozanat strategik boshqaruvning eng muhim vazifasidir.

Makro muhit omillari — iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va texnologik sharoitlar — tashkilot faoliyati uchun tashqi imkoniyat va tahdidlar manbai hisoblanadi. Iqtisodiy omillar resurslarning shakllanishi va taqsimlanishini, inflyatsiya, foiz stavkalari, soliq siyosati kabi ko'rsatkichlar orqali korxona faoliyatiga ta'sir etadi. Huquqiy va siyosiy barqarorlik darajasi esa tadbirkorlik muhiti va investitsion jozibadorlikni belgilaydi. Ijtimoiy omillar, xususan, aholining demografik tarkibi va qadriyatlar tizimi iste'mol talabiga ta'sir ko'rsatar ekan, texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish samaradorligi va raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Mikro muhit omillari ham tashkilot faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iste'molchilar bilan munosabatlar bozordagi talabni shakllantirsa, resurs ta'minotchilari bilan barqaror hamkorlik ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi. Raqobatchilar tahlili tashkilotning bozordagi pozitsiyasini aniqlash va samarali strategiya tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ishchi kuchi bozori tahlili orqali mehnat resurslarini oqilona taqsimlash, malakali kadrlarni jalb etish va ularni rag'batlantirish mexanizmlari belgilab olinadi.

Ichki muhit tahlili esa tashkilotning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatib berdi. Kadrlar salohiyati, tashkiliy tuzilma, ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorlik uning strategik imkoniyatlarini belgilaydi. Shuningdek, tashkiliy madaniyat va rahbarlik uslubi jamoa ichki muhitini shakllantiruvchi, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun muhim omildir. Tashkiliy madaniyat har qanday tashkilotda xodimlarining o'z ishlarini bajarish usullarida, ularning bir-biriga va umuman tashkilotga qanday munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Strategik boshqaruv uchun tashkiliy madaniyatni tahlil qilishning alohida ahamiyati shundaki, u nafaqat tashkilotdagi odamlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi, balki tashkilot tashqi muhitidagi mijozlar va raqobatchilar bilan o'zaro munosabatlarni qanday qurishiga, ularga qanday munosabatda bo'lish usullarini tanlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tashkilotning strategik rejalashtirish samaradorligini oshirish uchun tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tez va ilmiy-amaliy asoslangan munosabat bildirish, ichki salohiyatni doimiy tahlil qilib borish zarur. Faqat shundagina tashkilot tashqi muhitdagi raqobat kurashini yengib, o'z maqsadlariga erishishda barqarorlikka ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashqi muhit omillari strategik rejalashtirish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun tashqi muhitni chuqur tahlil qilish, undagi xavf va imkoniyatlarni aniqlash strategik qarorlarning sifatini oshirish, risklarni kamaytirish hamda barqaror raqobat ustunligini ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, strategik rejalashtirish samaradorligini baholashda moslik darajasi, raqobat ustunligi, daromadlilik, ish faoliyatining jadalligi, kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi, jozibadorlik, kirish xarajatlari va qo'shimcha manfaatlar mezonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mezonlar asosida tashkilotning tashqi va ichki muhit omillariga moslashish darajasi hamda strategik qarorlarning amaldagi samaradorligi aniqlanadi. Masalan, raqobat ustunligi va jozibadorlik mezonlari bozordagi mavqe va innovatsion faoliyatni belgilasa, daromadlilik va resurslardan foydalanish samaradorligi ichki boshqaruv tizimining barqarorligini ko'rsatadi.

Ichki imkoniyatlarni to'g'ri baholash, resurslarni oqilona taqsimlash va boshqaruv tizimini strategik maqsadlarga mos ravishda yo'naltirish korxonaning uzoq kelajakdagi faolligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, strategik qarorlar qabul qilishda mikro va makro omillar o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish zarur. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki raqobatbardoshlik darajasini ham oshiradi.

Sohadagi ayrim muammolarni bartaraf etish hamda strategik rejalashtirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni berishimiz mumkin: korxonalar strategik rejalashtirish jarayonida tashqi muhit omillarini baholashning uzluksiz monitoring tizimini joriy etishlari zarur; ichki resurs va imkoniyatlarni baholashda analitik ko'rsatkichlardan keng foydalanish, bu jarayonda "moslik darajasi" va "daromadlilik"



mezonlariga e'tibor qaratish tavsiya etiladi; strategik qarorlar qabul qilishda raqobat ustunligi va jozibadorlik mezonlari asosida tashqi bozor sharoitlariga moslashuvchan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq; raqamli texnologiyalar asosida prognozlash, risk tahlili va strategik baholashni avtomatlashtirish lozim. Bularning barchasi korxonaning barqarorligini oshiradi deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, strategik rejalashtirish samaradorligini ta'minlash tashqi muhitni to'g'ri baholash, ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish va mezonlarga asoslangan ilmiy yondashuvni amaliyotga joriy etish orqali amalga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dedajanov, B. N. (2022). Menejment. Darslik.–Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.
2. Bakar, L. J. A., & Zainol, F. A. (2015). Strategic management and business environment: A review. *Asian Journal of Business and Management Sciences*, 4(3), 130–140.
3. Cengiz, H. (2020). Strategic Management: External Environment Analysis. Anadolu University Open Education Faculty.
4. Dantas, R. G., & Silva, V. G. M. (2024). Strategic Planning Models, Prospective Scenarios, Forecasting, And Environmental Analysis – A Literature Review. *IOSR Journal of Business and Management*, 26(10), Ser. 8.
5. Purwanti, A., Judijanto, L., & Thalib, N. (2023). The Influence of the External Environment on Business Strategy Planning and Implementation. *WSJ WestScience Press*.
6. Sadiku, K. M. (2022). External Factors and Their Impact on Enterprise Strategic Management: A Literature Review. *European Journal of Human Resource Management Studies*, 6(1).
7. Shirokova, G., & Bogatyreva, K. (2019). Strategic Adaptability of Firms in Emerging Markets under Environmental Uncertainty. *Journal of Business Research*, 98, 112–123.
8. Pearce, J. A., & Robinson, R. B. (2013). Strategic Management: Planning for Domestic and Global Competition (13th ed.). New York, NY: McGraw-Hill Education.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100